



НАУЧНЫЙ  
ИМПУЛЬС

ЦЕНТР НАУЧНОЙ  
ПОДДЕРЖКИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ СОВРЕМЕННЫЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

# НОВОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ: ИССЛЕДОВАНИЕ В XXI ВЕКЕ



Последние  
взгляды

Последние  
данные

Последние  
исследование

И НОВОЕ ОБРАЗОВАНИЕ



*Международный современный научно-практический журнал*

# **Новости образования: Исследование в XXI веке**

№ 18 (100)  
Февраля 2024 г.

**Часть 1**

Издается с августа 2022 года

Москва 2024

<b>TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNI ZAMONAVIY USULLARI</b> G'aybullayeva G. Ismatov M Boltayeva Q	174
<b>ILG'OR PEDAGOGIK G'OYALARNI YUKSALTIRISH</b> G'aybullayeva G Ismatov M Tajiboyev M	177
<b>ПРОЗОРОВА ОЛЬГА ВИКТОРОВНА ВЕДУЩИЙ СПЕЦИАЛИСТ ИСПЫТАТЕЛЬНОЙ ЛАБОРАТОРИИ</b> Тохинова Зиёдахон Зиёвуддин кизи	182
<b>TALABALARDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ANA'NAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI</b> Ibragimov Muslim Artikmashrabovich	188
<b>XO'JALIK FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MAROSIM, UDUMLAR VA ULARNING ZAMONAVIYLASHUVI</b> To'rayev Anvar Ismoilovich Tilavova Ozoda Saloxitdin qizi	192
<b>EPIDEMIOLOGY OF COVID-19-ASSOCIATED GASTROINTESTINAL DISEASE AND COMPUTED TOMOGRAPHY IN PATIENTS WITH COVID-19</b> Toxirov Axrorjon Adxamjon o'g'li	196
<b>ABDURAUFI FITRATNING "OILA" ASARIDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR</b> G.Karabaeva	206
<b>FORMATION AND DEVELOPMENT OF A VALUE ATTITUDE TOWARDS NATURE, ANIMALS AND BIRDS AMONG JUNIOR SCHOOLCHILDREN</b> Kosimjanova Nodira Lochinbekovna	213
<b>THE CRUCIAL ROLE OF IDIOMATIC EXPRESSIONS AND WORDPLAY IN TRANSLATION OF FICTION</b> Anvarjonova Zarifa	217
<b>VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN BOSHQA JINOIY-HUQUQIY TA'SIR CHORALARI QO'LLASHNING XORIJIY TAJIRIBASI.</b> Qo'shiyev Mirjalol Saidvali o'g'li	221
<b>EFFECTIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH TO TEENAGE LEARNERS</b> Iroda Sapparova Lobar Turdiyeva	225
<b>RUDALARNI QAYTA ISHLASH FABRIKASINI, DAMKA UCHOG'INI SUVTAMINOTI TIZIMI VA ULARNI TOZALASH XAMDA QAYTA FOYDALANISH</b>	228



## XO'JALIK FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ MAROSIM, UDUMLAR VA ULARNING ZAMONAVIYLASHUVI

**To'rayev Anvar Ismoilovich**

*Buxoro Davlat Universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Tilavova Ozoda Saloxitdin qizi**

*Buxoro Davlat Universiteti 4-bosqich talabasi*

Email: [ozodatilavova888@gmail.com](mailto:ozodatilavova888@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog'liq marosim, udumlar va ularning transformatsion o'zgarishlari haqidagi ma'lumotlar manbalar asosida tahlil qilinadi.*

**Kalit so'zlar:** *dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, oblo baraka, urug' qadash, ot poyga, eshak poyga, chavgon, xo'roz urushtirish, qo'chqor urushtirish, chopon, do'ppi, belbog'*

Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining muhim tarmog'i hisoblanib, azal-azaldan bu xo'jalik sohalarni rivojlantirishga xalqimiz tomonidan e'tibor qaratilib kelingan. Xo'jalik tarmoqlarining ilk ko'rinishlari ibtidoiy davrda paydo bo'lgan bo'lib, asrlar davomida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Xalqimiz tomonidan bugungi kunga qadar dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sohalar bilan bog'liq marosim va udumlar ham o'tkazilib kelinmoqda. Xususan, "Ko'pkari", "Chopon kiygizish marosimi", "Urug' qadash marosimi", "Qovun sayli", "Shamol momo", "Navro'z", "Yig'in", "Yoshlarni paxtakorlar safiga qabul qilish marosimi", "Oq oltin karvoni", "Birinchi gul", "Uloq choptirish" kabi an'analarning keng xalq orasida nishonlanishi bunga yaqqol misoldir. Shunday marosimlar haqida, xususan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan udumlarni Usmon Hosil, Iso Jabborov, F. Jumayeva kabi olimlar o'z asarlarida yoritib berishgan.

O'zbek xalqi asrlar davomida o'zining mehnatkash xalq ekanligi bilan shuhrat qozonib kelgan xalqlardan biri bo'lib hisoblanadi. Davrlar mobaynida mehnat faoliyatida shunday o'zgarishlar sodir bo'lganki, aholining ish faoliyati bevosita diniy udumlar bilan omixtalashib mehnat bilan bog'liq urf-odatlarining paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Shuningdek, mehnat faoliyatini tugatib mehnatkashlar hordiq chiqarish maqsadida turli xil sayllar va bayramlarni ham tashkil qilishgan.

Tarixiy adabiyotlarda keltirilishicha, xalqimizda qadimdan dalalarda ish boshlanishi, yerga ilk bor urug' qadash munosabati bilan maxsus marosimlar uyushtirish odati shakllanib, davrlar o'tishi bilan keng ommalashgan edi. Bizning davrimizga kelib, jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli bu xalq odatlari ma'lum ma'noda o'z mavqeyini, tantanavorligini yo'qotgan bo'lsa-da, uning zaminida paxta yetishtiriladigan mintaqalarning ba'zi joylarida zamonaviy "urug' qadash" marosimi vujudga kelmoqda<sup>7</sup>. Hozirgi kunga kelib qadimgi

<sup>7</sup> Usmon Hosil. Odatnoma. II qism. -T.: "O'zbekiston", 2018.-B. 255.

amallar yangilanib, zamonaviylashib bormoqda. Dehqon, paxtakorlar tomonidan yerga urug' qadala boshlanishi bilan, ular uchun mehnat mavsumi boshlanib ketadi. Madaniyat xodimlarining bu boradagi vazifasi ilk urug' qadash marosimini mehnat bayramiga aylantirib, ko'tarinki kayfiyatda nishonlashdan iboratdir.

Respublikamizning ilg'or jamoalarida "urug' qadash" ("chigit ekish") bayrami ko'pgina joylarda o'ziga xos qiziqarli uslubda tashkil etiladi<sup>8</sup>. Urug' qadash marosimining ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilishiga sabab shundan iboratki, dehqon, traktorchilarni ekin ishlarini boshlashdan oldin yaxshi niyat va duolar ila boshlab, yangi hosil yili davomida yaxshi kayfiyatda o'tishiga yordam beradi.

"Oblo baraka" marosimida hasharchilar bug'doy o'rimining oxirida bir parcha o'rilmagan yer qolgach, har tomondan o'rib o'sha yerga intiladilar. Har bir hasharchi oxirgi bug'doy tutamini o'rib olishga harakat qilgan va shu tutamni "ona bug'doy" deb ataganlar. Kimki birinchi bo'lib oxirgi tutamga yetib kelsa, "yetdim yetdim, yetdim, Oblo baraka bersin", deb uni o'rib oladi. Ona bug'doy shu holigacha bog'lanib, uyga olib boriladi va bahorgi ekish paytigacha saqlanadi. Ekin ekish boshlanganda ona bug'doy tozalanib, bir qismi urug'lik donga, bir qismi yanchilib xonadondagi tayyor unga aralashtirib, undan nonpatir yopiladi<sup>9</sup>. G'allaorol atroflarida "Oblo baraka" deb ataluvchi marosim "oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish" deb ham nomlanib kelingan. Keyinchalik islom dini ta'siri ostida "Oblo baraka" ("Alloh baraka bersin" ma'nosida) deb yuritila boshlangan. Ba'zi hududlarda barcha hosil yig'ib bo'lingandan so'ng ustiga kesak qo'yilgan, bu kesak "baraka kesagi" bo'lib hisoblangan. Bu marosim asosan hasharchilar tomonidan amalga oshirilgan. Bu qadimiy mashhur marosim hozirda ham ba'zi joylarda o'tkazilib kelinmoqda.

Qadimda ota-bobolarimiz hayvonlar jangini maroq bilan tomosha qilishgan, keyinchalik hayvonlarni maxsus urush uchun boqib tayyorlashgan va urushtirishgan. Shunday qilib "qo'chqor urushtirish", "xo'roz urushtirish", "bedana urushtirish" va boshqa shu kabi o'yinlar paydo bo'lgan. Hayvonlar ishtirokida o'tadigan boshqa o'yinlar ham bo'lgan. Ularda hayvonlardan vosita, ulov sifatida foydalanishgan. Jumladan, eshak va ot minib o'ynaladigan "eshak ko'pkari", "uloq", "ot poyga", "ag'darish", "chavgon", va boshqa o'yinlar o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan<sup>10</sup>. Bu o'yinlar Surxondaryo va Qashqadaryo hududlarida hozirda ham keng ommalashgan o'yin turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, Buxoro vohasida ham xuddi shu o'yin turlariga yaqin bo'lgan "buzkashi", yoki "ko'bori" (ko'pkarining Buxoro vohasiga xos varianti) amalda o'tkazilib kelingan. O'zbekistonning ko'pgina joylarida bahorda o'tkaziladigan Navro'z va boshqa bayramlarda ham ushbu o'yin turlari musobaqa shaklida o'tkazilib kelinmoqda. Jumladan, Navro'z ayyomi o'lkamizning dehqonchilik va chorvachilikka oid eng qadimgi marosimlaridan bo'lib hisoblanadi.

Navro'z ayyomi - «Avesto»da qayd qilingan «Xamaspaeta» bayrami bilan bog'lanadi. Qadimda bu udum ezgu ruhlarning yangi yil arafasida o'zlari yashagan xonadonga tashrif buyurishi bilan aloqador marosim sifatida o'tkazib kelingan. Bayram dasturxonlarining

<sup>8</sup> Usmon Hosil. Odatnoma. II qism. -T.: "O'zbekiston", 2018.-B. 256.

<sup>9</sup> Iso Jabborov. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. -T.: "O'qituvchi", 2003.-B. 108.

<sup>10</sup> Usmon Hosil. Odatnoma. II qism. -T.: "O'zbekiston", 2018.-B.47.

bezatilishi xo'jalik mashg'ulotlari bilan ham bog'liq bo'lgan. Masalan, dehqonlarning dasturxonini ziroatchilik ne'matlari bilan to'lsa, chorvadorlarning dasturxonida go'sht va sut-qatiq mahsulotlari ko'proq bo'lgan. Uy bekalari ushbu kunda har yilgi odatlariga ko'ra «uy ko'taradilar». Ya'ni uydagi gilam, kigizlarni tashqariga olib chiqib yoyadilar, hammayoqni supurib-sidiradilar, qishi bilan isingan sandallarni olib tashlab, o'rnini tuproq bilan ko'mib, tekislaydilar. Shu kuni tanadagi bodni quvib chiqarish uchun marosimiy o'rik turshagidan tayyorlangan sharbat ichiladi. XIX asrda Qo'qon xonligida yangi yil bayrami — «Sari-sol»da xon haramiga o'rik turshagidan tayyorlanadigan sharbat uchun ma'lum miqdorda shakar va o'rik turshagi ajratilishi to'g'risidagi ma'lumot ham fikrimizni isbotlaydi<sup>11</sup>. Shuningdek sumalak ichimligining ham ziroatchilik bilan bog'liqlik jihatlari anchadir. Sumalaklar pishirilgan ulkan qozonlar qadimdan muqaddas sanalib, ularda tangrilar sharafiga maxsus taomlar pishirilgan. Serhosillik timsoli hisoblangan bunday qozonlarda tayyorlangan sumalakdan tanovul qilgan kishiga yil bo'yi omad, qut-baraka yor bo'ladi degan qarashlar mavjud bo'lgan. Bir idishda taom iste'mol qilish odamlarni o'zaro yaqinlashtiradi degan qadimiy qarashlarga hamohang holda bitta qozonda bayram taomlarini tayyorlash ham kishilarni g'oyaviy jihatdan birlashtiradi deyishimiz mumkin<sup>12</sup>.

Dehqonchilik, chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik sohasi bilan bog'liq ba'zi bir udumlarni ham manbalarda uchratib turamiz. O'zbeklarda boshqa Sharq xalqlari singari hurmatli mehmonlarga sarpo kiygizish odati qadimdan saqlanib kelgan. Chopon, do'ppisi va belbog'i bilan to'y va ma'rakalarda qarindosh - urug'larga, hurmatli mehmon va xizmatkorlarga hadya qilingan. Shuning uchun chopondo'zlik juda zo'r taraqqiy qilgan va choponlar hatto, chet el bozorlariga ham chiqarilgan. O'tgan asrning o'rtalarida (1840 - 1850 - yillari) Turkiston o'lkasidan Orenburg va Troitsk orqali Rossiyaga 1900 ta paxtali ipdan tikilgan va yarim ipak choponlar jo'natilgan. Har yili keng bozorga mo'ljallanib minglab po'stinlar, mahalliy telpak va cho'girmalar tikib chiqarilgan<sup>13</sup>. Hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan chopon, belbog' va do'ppilar kelgan mehmonga nisbatan hurmat ehtirom ko'rsatish vositasi bo'lgan. Hozirgi kunda ham ayniqsa Buxoro hududlarida to'yga kelgan yoshi ulug' mehmonlarga chopon, belbog' va do'ppi kiygizish an'anasi saqlanib qolgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, xalqimiz orasida o'tkazilib kelinayotgan ushbu marosimlar, o'zbek an'alarining ajralmas qismi bo'lib, xalqimizning qadimiy nomoddiy madaniy me'rosi bo'lib hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmon Hosil. Odatnoma. II qism. -T.: "O'zbekiston", 2018.
2. Iso Jabborov. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. -T.: "O'qituvchi", 2003.
3. Ashirov A, Atadjanov Sh. Etnologiya. -T.: "Iqtisod-moliya", 2008.
4. Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. -T.: "Cho'lpon", 2007.

<sup>11</sup> <https://www.savol-javob.com/navroz-udumlari-va-urf-odatleri/>

<sup>12</sup> <https://www.savol-javob.com/navroz-udumlari-va-urf-odatleri/>

<sup>13</sup> Iso Jabborov. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. -T.: "O'qituvchi", 2003.-B. 199.

5. Haydarov Z. Nomoddiy madaniy me'ros. -Namangan.: 2014.
6. <https://www.savol-javob.com/navroz-udumlari-va-urf-odatlari/>